

2018 yil yanvar-mart

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-mart oylarida 277,1 mln. AQSh dollarni, shu jumladan eksport 65,5 mln. AQSh dollarni va import 211,5 mln. AQSh dollarni tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi –146,0 mln. AQSh dollarni tashkil etdi.


Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 martaga va kimyo mahsulotlari eksporti 135,1 foizga o'sdi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 26,5 mln. AQSh dollarni tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 79,5 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirkorlik sub'yetklarining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-mart oylarida 211,9 mln. AQSh dollarni, shu jumladan eksport 46,0 mln. AQSh dollarni va import 165,9 mln. AQSh dollarni tashkil qildi.

Eksport tarkibi, foizda



Import tarkibi, foizda



- oziq-ovqat mahsulotlari
- kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- gora metall


- mashina va asbob-uskunalar
- xizmatlar
- rangli metallar
- boshqalar



Eksport va importda sohalar ulushlari

Import tarkibining umumiy hajmidan 32,5 foizini mashina va asbob-uskunalar, 28,6 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 8,1 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 53,5 foizni va safarlar 15,4 foizni tashkil etdi.



Importda eng katta ulushni, ya'ni 32,5 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 8,3 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (51,0 foiz) eksport hajmining yarmini tashkil etdi.



2018 yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosи –146,0 mln. AQSh dollarni tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan –37,4 mln. AQSh dollarni va boshqa davlatlar bilan –108,6 mln. AQSh dollarni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-martida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:

	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan, %</i>
Eksport	65,5	124,4	100
paxta tolasi	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	33,4	107,2	51,0
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	1,3	135,1	1,9
qora va rangli metallar	5,0	5,5m	7,7
mashina va asbob-uskunalar	5,5	2,2m	8,3
xizmatlar	5,3	109,6	8,1
boshqalar	15,1	124,1	23,0
Import	211,5	130,5	100
oziq-ovqat mahsulotlari	41,7	190,2	19,7
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	60,5	135,0	28,6
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,3	40,0	0,2
qora va rangli metallar	24,1	4.3m	11,3
mashina va asbob-uskunalar	68,7	96,3	32,5
xizmatlar	0,4	42,1	0,2
boshqalar	15,8	95,3	7,5


2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 39,5 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 60,5 foizni tashkil qildi.

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 26,5 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 119,1 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 40,0 foizni sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,7 foizni tashkil qildi), 22,8 foizni mevalar (110,3 foizni), 33,4 foizni uzum (119,7 foizni) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 47,8 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (104,7 foizni) tashkil qiladi.

Tashqi savdo aylanmasida davlatlar ulushi, foizda

Tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkor davlatlar Qozog'iston (umumiy



hajmdan 17,8 foiz), Rossiya (15,9 foiz), Afg'oniston (0,6 foiz), Xitoy (18,9 foiz), Turkiya (10,0 foiz), Qirg'iziston (0,7 foiz) va Iraq (0,3 foiz) hisoblanadi.